www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

TIL O'RGANISH VA TIL O'QITISH JARAYONIDA YUZAGA KELUVCHI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Nuriddinova Dinora
UzDJTU, xorijiy til va adabiyoti
ingliz tili 2127-guruh

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada til o'rganish va o'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari haqida so'z boradi, shuningdek foydali tavsiyalar berilgan.
Kalit so'zlar: Lug'at boyligi, chet tillari, O'zbek tiliga moslashtirish usuli, rasm chizish.

Bugun hayotni chet tillarisiz faraz qilib bo'lmaydi. Globalizatsiya jarayoni tezlashgan sari chet tilini o'rganish zamon talabi bo'lib boryapti. Bugun har qanday sohada yaxshi bir mutaxassis bo'lish uchun ingliz tilini bilish oddiy talabga aylanib qoldi. Biror bir chet tilini o'rganayotganda o'zimga bergan savolim quyidagicha bo'lib kelgan: "Chet tilini qanday qilib tez o'rgansa bo'ladi? Chet tilida qanday qilib oson gapirish mumkin?" "Tilni tez o'rganish, unda tezda gapira olish siri nimada? Bu kabi savollar nafaqat menda balki chet tilini o'rganayotganlarning ko'pchiligida ham bo'lishi mumkin. Xorijiy tillardan xususan ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishning zamonaviy ta'lim metodlari ishlab chiqilgan bo'lishiga qaramasdan, o'zlashtirishning o'ziga xos muammolari mavjud. Uzoq yillar davomidagi izlanishlar natijasida mutaxassislar shuni ta'kidlab o'tadiki, muammoning sababi bu til o'rganishga bo'lgan yondashuvdadir.

Chet tilini yaxshi bilishning asosiy shartlaridan biri - katta lug'at boyligining zarurligidadir. Tilni yaxshi bilish darajasi 15 mingdan ortiq so'zni o'zlashtirish, 50 ming so'zni bilish esa allaqachon zo'r daraja hisoblanadi. Chet tillarini o'rganish uchun juda ko'p turli xil usullar mavjud, shu jumladan xorijiy so'zlarni yodlash uchun mo'ljallangan usullar va metodlar ham anchagina. Mening fikrimcha chet tilini o'rganishdagi katta muammo bu lug'at yodlash va uni esda saqlab qolib qo'llay olishda. Xo'sh hozir biz qanday qilib ingliz tilida lug'atlarni samarali va xotirada bir umr saqlanadigan darajada yodlash kerak kabi savollarga javob topamiz. Ko'pgina tajribalarga va o'zimning lug'at yodlashdagi qo'llagan tajribalarim asosida ingliz tilida lug'at boyligini oshirishning quyidagi usullarini o'rganib chiqamiz.

Lug'at o'rganish: Biz o'zingizni majburlab yillar davomida so'z yodlashimiz bu eng noto'g'ri metoddir. Muammo shundaki ingliz tilida gapirganda ushbu so'zlarni qo'llay olmaslik, ularning ko'pchiligi kundalik hayotda umuman ishlatilmasligi va tezda unut bo'lib ketishidadir. Shunday ekan bu uslub tilda so'z boyligini orttirishda juda noto'g'ridir. So'z yodlashning eng oson yo'li o'rganilayotgan chet tilida ko'proq o'qishdir. Ingliz tilini o'rganayotgan bo'lsangiz, o'ziz uchun zerikarli, hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan matnlarni o'qigandan ko'ra internetda o'ziz qiziqqan sohadagi matnlarni yoki kitob va jurnallarni o'qing. Hamma tushunmagan so'zlarga to'xtamasdan, faqatgina gapning ma'nosini anglab yetishga kerakli notanish so'zlarni uchratganingizda lug'atdan yoki Google Translate kabi xizmatlardan tarjimasini toping va uni daftarga qayt etib qo'ying. Iloji bo'lsa har kuni 3-4 bet o'rganilayotgan chet tilida biror bir matn o'qishga harakat qiling va har safar notanish so'zni tarjimasini topib yozib keting. Bu yozganlaringizni yodlashga hech qachon kirishmang, men yozganlarimni hatto qaytib o'qib ham ko'rmiyman odatda. Bizning yod olish qobiliyatimiz shunday shakllanganki, agar biz biror so'zni ko'rib, shunchaki tarjima qilib ketsak, u esimizda qolmaydi, lekin biror joyda qayd etib qo'ysak, miya bu narsaning muhimligiga urg'u beradi va so'z yodimizda qolib boshlaydi. Natijada har xil matnlarda 5-6 marta uchragan bir so'z unutilmas darajada yod bo'ladi va shu bilan birga so'zning qaysi kontekstda qaysi ma'noda qo'llanilishini ham bilib olamiz. Chet tilida har kuni matn o'qiganimizning yana bir foydasi shundaki, o'rgangan gramatik mavzularimizni matnda ishlatilganligini ko'rib, gramatik asosimizni yanada mustahkamlab boramiz.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

O‘zbek tiliga moslashtirish usuli. Ingliz tilida so‘z yodlayotgan o‘quvchi yana bir qiziq holatga duch kelishi mumkin. U ham bo‘lsa, ba’zi inglizcha so‘zlarning o‘zbekcha so‘zlar bilan nafaqat ohangdosh, balki ma’nodosh ekanligi hamdir. Albatta, bunga o‘xshash so‘zlar sanoqli, lekin harakat va izlanishlar orqali bunday so‘zlarni ko‘plab topishingiz va so‘z boyligingizni yanada ko‘paytirishingiz mumkin. Quyida shunday so‘zlardan misollar keltiramiz:

To chop – chopmoq	Daddy – dada
The wall – devor	A voice – ovoz
Asphalt –asfalt	Candle – qandil

Lug‘at daftari tutish san’ati. Lug‘at daftari – har qaysi tilni o‘rganayotgan inson tutishi lozim bo‘lgan yordamchi vositadir. Ko‘pchilikning lug‘at daftari zerikarli, bee’tibor, pala-partish bo‘ladi. O‘quvchilar bunday tartibsizlik yangi so‘zlarni eslab qolishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi haqida o‘ylab ham ko‘rmaydi. Lug‘at daftaringizda turli xil rangdagi ruchkalardan foydalaning. Lug‘at tutishdagi eng katta xato bir xil rangli ruchka ishlatishdir. Tasavvur qiling, lug‘atdagi hamma so‘zlar ko‘k rangda yozilgan, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, manzara naqadar zerikarli. Aynan shundan keyin bola o‘qishdan zerikadi-da. O‘quvchining ijodkorlik xususiyati pasayib ketadi. Natijada esa miyamiz zerikkan narsaga e’tibor qaratishni xohlamaydi.

So‘zlar oldiga rasmlar chizish. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar so‘zlarning oldiga rasm qo‘yib yodlasangiz, eslab qolish ehtimoli oshar ekan. Ayniqsa, lug‘at daftaringizdagi qiyin va yaqqol tasavvurga moyil yangi yodlanadigan so‘zlarga rasm chizish kerak. Eng muhimi, chiroyli chizish emas, balki yangi so‘zga moslab chizish zarur. Bundan uyalmaslik ham kerak. Bundan tashqari, rasm fotografik xotirangizni biroz bo‘lsa ham jonlantiradi.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra ingliz tilida eng ko'p ishlatiladigan 200 ta so'z ingliz tilidagi yozishmalarni teng yarmini tashkil etar ekan. Shu uchun ham lug'at yodlaganda tilda eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni yod olishni o'zi yetadi. Keyin, unga faqatgina o'zingizga kerakli sohadagi so'zlarni qo'shib o'rganishgina yetarli. Mana bu manzilda siz o'rganayotgan chet tilida eng ko'p ishlatiladigan so'zlar ro'yxatini ko'chirib olishingiz mumkin. Demak, lug'at o'rganga prioritetni aniqlab, aynan kerakli narsalarni o'zini o'rganishgina yetarli. Shunda ham so'zni xalq tilida aytganda "qoriga o'xshab yodlamasdan", ro'yxatdagi so'zlarning har biri ishtirokida beshtadan gap yozishga harakat qiling. Har safar ular ishtirokida gap tuzganingizda so'zlar texnik tarzda yod bo'la boshlaydi va lug'at boyligingiz boyib boradi. Demak, chet tilida gapirilganda 90 foiz holatda 1000 ga yaqin ko'p qo'llanuvchi so'z ishlatiladi xolos, qolganini bo'lsa har kim o'z sohasiga moslab o'rgansagina yetarlidir.

Xulosa qilib aytganda, lug’at yodlashning turli xil usullarini ko’rib chiqib har birida foydalanib va o’zimiz uchun qulay bo’lgan biror bir usulni olib shu asosida so’zlarni yodlasak bu juda ham maroqli va samarali bo’ladi. Aslida ingliz tilida so’zlarni yodlash qiyin emas. Bu faqatgina sizning lug’at yodlashga nsbatan harakatingizga bog’liq.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.https://vaqt.ucoz.com/publ/turli_mavzular/chet_tilini_tez_o_96_rganish_sirlari/18-1-0-1265
2.https://prep.uz/news/umumiy/so-z-yodlashning-siz-bilmagan-sirlari

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

3.https://l-gallery.ru/uz/vneshnyaya/kak-bystro-zapominat-inostrannye-slova-poleznye-priemy-i/
4.https://mywordworld.ru/uz/uchitelyu/kak-zapominat-inostrannye-slova-s-pomoshchyu-obrazov-kak-bystro-vyuchit-mnogo/